

So'x tumanida tibbiyot turizmini rivojlantirish yo'llari va salohiyati o'rganildi





So'x tumanida tibbiyot turizmini rivojlantirish yo'llari va salohiyati o'rganildi

So'x tumani viloyatimiz hududida o'ziga xos bo'lgan tuman hisoblanadi. To'rt tomoni Qirg'iziston respublikasi bilan chegaradosh bo'lgan So'xda turizmni rivojlantirish va tumangga ziyoratchilarni jalb etish choralari ko'rilmogda.

Tumanda tashkil etilgan navbatdagi press-tur aynan mana shu dolzarb mavzuga bag'ishlandi. Respublika va mahalliy ommaviy axborot vositalari vakillari, viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi rahbariyati va tumanda faoliyat olib borayotgan blogerlar ishtirokida tumanda tibbiyot turizmi salohiyatini ko'atrishga qaratilgan ishlar tahlil qilindi.

Ayni kunda tumanda tibbiyot sohasiga berilayotgan e'tibor tufayli xususiy shifoxona va klinikalar soni ortmogda. Bu esa, qo'shni mamlakat fuqarolarini bizning tumanga kelib davolanishlariga imkoniyat eshiklarini ochmogda.

Tuman tibbiyot birlashmasi tomonidan berilgan ma'lumotlarga ko'ra, Chashma, Zangat, Obishir, So'x, Rovon, Istiqlol, Demursad. Devayron, Oftobru mahallalaridagi klinikalarda qo'shni mamlakat fuqarolari ham davolnishmogda. Statistika ma'lumotlarga ko'ra, bir oyda qariyb 800 nafar fuqarolar aynan qo'shni mamlakatdan kelib, bizning tuman shifokorlari xizmatidan bahramand bo'lishayotir.

Tashkil etilgan press-tur davomida Chashma, Devayron mahallalaridagi xususiy klinikalar fa'oliyati o'rganildi. Ma'lumot uchun: tuman tibbiyot birlashmasiga keltirilgan yangi va zamonaviy gemodializ dastgohi xizmatidan qo'shni mamlakat fuqarolari ham foydalanishayotir.

Tadbir jarayonida tumanda tibbiyot turizmi salohiyati kengligi ta'kidlandi. Bu bo'yicha Respublikaning yirik OAV vakillari va keng jamoatchilik ishtirokida kulgusida media-tur tashkil etilishiga kelishib olindi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-02-23 16:18:17